



THE PATENTING SYSTEM AND PRACTICE IN INTELLECTUAL PROPERTY LAW: THE EXAMPLE OF AN INDUSTRIAL DESIGN

Makhmudov Nizomiddin Olimjon ugli

Employee of the State Institution "Intellectual Property Center"
under the Ministry of Justice

E-mail: nizomiddin0066@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18742625>

ARTICLE INFO

Received: 15th February 2026

Accepted: 21st February 2026

Online: 22nd February 2026

KEYWORDS

Industrial designs, patenting, design, intellectual property, Locarno classification, Hague system, state examination, official examination, scientific-technical examination, novelty, originality, international law.

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the industrial design patenting system and its practical implementation within the framework of the national legislation of the Republic of Uzbekistan and relevant international instruments, including the Paris Convention, the TRIPS Agreement, and the Locarno and Hague classification systems. The study examines the artistic and design features of industrial designs, criteria for patentability, the state examination process, as well as the registration of variants and sets of industrial designs to assess the level of legal protection of various design elements. The article also addresses strategies for enhancing market competitiveness through patent protection, safeguarding intellectual property during international export, and ensuring comprehensive IP protection. Furthermore, the study analyzes the conformity of industrial designs with international standards, national regulatory mechanisms, and effective utilization of international classification systems. The research methodology integrates normative-legal analysis, comparative legal method, doctrinal commentary, and analysis of applied legal practices.

INTELLEKTUAL MULK HUQUQIDA PATENTLASHTIRISH TIZIMI VA AMALIYOTI: SANOAT NAMUNASI MISOLIDA

Mahmudov Nizomiddin Olimjon o'g'li

Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" DM xodimi

El.pochta: nizomiddin0066@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18742625>

ARTICLE INFO

Received: 15th February 2026

Accepted: 21st February 2026

Online: 22nd February 2026

KEYWORDS

ABSTRACT

Ushbu maqola sanoat namunasini patentlash tizimi va uning amaliyotini chuqur tahlil qiladi, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi hamda xalqaro



Sanoat namunalari, patentlash, dizayn, intellektual mulk, Lokarno tasnifi, Gaaga tizimi, davlat ekspertizasi, rasmiy ekspertiza, ilmiy-texnik ekspertiza, yangilik, originallik, xalqari huquq.

hujjatlar kontekstida, jumladan Parij konvensiyasi, TRIPS shartnomasi, Lokarno va Gaaga tizimlari doirasida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot sanoat namunasining badiiy-konstruktorlik xususiyatlarini, patentga layoqatlilik mezonlarini, davlat ekspertizasi jarayonini, shuningdek, variantlar va jamlanmalar orqali turli dizayn elementlarining himoya darajasini o'rganadi. Maqolada patentlash orqali mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro eksportni himoya qilish hamda intellektual mulkning kompleks huquqiy muhofazasi masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada sanoat namunalari va dizaynlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi, milliy tartibga solish mexanizmlari va xalqaro tasniflash tizimlaridan samarali foydalanish strategiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot normativ-huquqiy tahlil, komparativ-huquqiy metod, doktrinal sharhlash va huquqiy amaliyot tahlili metodologiyalariga tayangan.

Kirish

Bugungi jadallik bilan rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli biznes yuritish uchun tadbirkorlar o'z mahsulotlari raqobatbardoshligi ustida har qachongidan ko'proq ishlashlari talab e'tilmoqda. Ayniqsa, o'z mahsulotining xaridorgir bo'lishini istagan tadbirkor uni boshqa tovarlardan nafaqat nomi va sifati bilan, balki, o'ziga xos tashqi ko'rinishi hamda eslab qolishga oson bo'lgan dizayni bilan ajralib turishini ta'minlashi zarur ahamiyat kasb etadi. Albatta, bozor iqtisodiyoti tovarlarning xilma-xil bo'lishini asosiy talab sifatida qo'yadi. Ushbu sharoitda iste'molchining ma'lum bir tovarni tanlashi nafaqat uning sifat ko'rsatkichlari bilan balki, ushbu sifatdan kelib chiqqan holda uning

estetik xususiyatlari va o'ziga xos dizayniga ham bog'liq bo'lgan jarayondir. Shu nuqtai nazardan, rus olimlari V.L. Mixaylikov hamda A.A. Ryabushenkolarining fikriga ko'ra mahsulot jozibadorligi va ergonomikasi, ya'ni, soddaligi va foydalanishning qulayliga san'at va texnologiya texnikasini uyg'unlashtirgan badiiy qurilish – dizayn orqali erishiladi¹. Biz ham ushbu fikrga qo'shilgan holda aytishimiz joizki, mahsulot o'z qiymatini to'la-to'kis namoyish etishi uning badiiy-estetik yechimlari bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu yechimlarni to'g'ri ishlab chiqish va u orqali ma'lum bir tovarni iste'molchi uchun yarata olish har qanday tadbirkor uchun juda muhim bo'lgan katta iqtisodiy qiymat kasb etadi. Bundan tashqari, badiiy-estetik talablar

¹ Михайликов, В. Л., & Рябушенко, А. А. *Понятие и признаки промышленного образца.* (n.d.). CyberLeninka.

<https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-priznaki-promyshlennogo-obraztsa/viewer>



darajasida tayyorlangan mahsulotning tashqi ko'rinishi mustaqil iqtisodiy qiymatga ega bo'lib, huquqiy tartibga solish obyekti – sanoat namunalariga aylanadi.

Mahsulot tashqi ko'rinishi, ya'ni uning dizayni uning bozordagi o'rnini belgilab berishini moda misolida kuzatish mumkin. Har qanday moda har bir xaridor uchun mukammal bo'lmasligi tabiiy hol bo'lgani holda, xaridor ma'lum bir kiyimni uning kamchiliklarini bilgan holda, mahsulot uning estetik g'oyalariga javob bergani uchun sotib oladi. Bundan tashqari, dizaynerlik ishi sifatida kiyim va boshqa sanoat mahsulotlarini chetga eksport qilishda ham ularning tashqi ko'rinishini mumkin bo'lgan nusxa ko'chirish yoki hatto maqbul obyektiv tasodiflardan huquqiy himoya qilish, shuningdek, patentning sofliqi, ya'ni eksport qilinayotgan mahsulotning import qilinadigan mamlakatda mavjud bo'lgan sanoat namunalariga bo'lgan huquqlarga nisbatan yaxlitligini ta'minlash zarurdir. Professor I. Yakubovning ta'kidlashicha, mahsulotning tashqi ko'rinishida badiiy va estetik xususiyatlarning mavjudligi uni sanoat namunasi sifatida belgilash va tijoratlashitirish uchun eng muhim omillardan hisoblanadi².

Mazkur maqolaning maqsadi — sanoat namunasi patentlash tizimining normativ-huquqiy asoslari va amaliy mexanizmlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xalqaro hujjatlar kontekstida kompleks tahlil qilishdir.

Tadqiqot savollari quyidagilarni tashkil etadi:

- Sanoat namunasi huquqiy muhofazasining konseptual asoslari nimalardan iborat?
- Patentga layoqatlilik mezonlari qanday qo'llaniladi?
- Davlat ekspertizasi amaliyotida qanday protsessual bosqichlar mavjud? Mazkur tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:
 - Normativ-huquqiy tahlil;
 - Komparativ-huquqiy metod;
 - Doktrinal sharhlash usuli;
 - Huquqni qo'llash amaliyoti tahlili.

ASOSIY QISM

Sanoat namunasi ro'yxatdan o'tkazish faqat badiiy xususiyatlar uchun huquqiy himoyani ta'minlaydi, ammo funktsional xususiyatlar har qanday shaxs tomonidan ko'chirilishi mumkin. Shuning uchun, agar tashqi ko'rinish xususiyatlarining aksariyati mahsulotning maqsadi bilan belgilanadigan bo'lsa, mahsulotning tashqi ko'rinishini sanoat namunasi sifatida ro'yxatdan o'tkazish etarli huquqiy himoyani ta'minlamaydi. Mahsulot shakli texnik yoki badiiy maqsadga ega ekanligini aniqlash uchun mahsulot shaklini o'zgartirish va yangi texnik natija olinadimi yoki yo'qligini tekshirish kerak: agar shunday bo'lsa, shakl patent qonunchiligi bilan himoyalangan bo'lishi kerak.

Mamlakatimizda sanoat namunalarini tartibga soluvchi asosiy **milliy qonun hujjatlariga** yuzlansak, dastavval O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va maxsus qonun

² I.B.Yakubova. Xalqaro intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuU nashriyoti, 2021. – 73-bet.



hioblanuvchi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida" 29.08.2002-yildagi 397-II-sonli qonun hamda O'zbekiston Respublikasining 11.01.2024-yilda 3490-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sanoat namunasiga patent berish uchun talabnomani tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari" intellektual mulk huquqining sanoat namunalarini huquqiy muhofaza va himoya qilishga oid normalarni belgilaydi. Shuningdek, xalqaro

Qonunchilikka ko'ra, **sanoat namunasi** bu buyumning tashqi ko'rinishini ifodalovchi badiiy-konstruktorlik yechimidir³. Ushbu norma sanoat namunasi bo'lishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan obyektlar doirasini belgilashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Bunda, sanoat namunasi aynan buyum sifatida keltirilmoqda, demak, biz butun boshli bir sanoat inshootini emas, balki, sanoat maqsadida ishlatilishi mumkin bo'lgan kichik buyumlar, shakllar va obyektlarning badiiy-konstruktorlik yechimlarini tushunishimiz lozim ekan. Albatta bu jihatdan yuqorida biz keltirgan tegishli Qoidalarning 2-bandida ham buyumga ta'rif berilib, sanoat yoki hunarmandchilik ishlab chiqarilishidagi istalgan buyum, xususan qismlardan iborat bo'lgan buyum, buyumni yig'ish uchun mo'ljallangan mustaqil komponentlar tushunilishi ta'kidlanadi⁴.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024, 11 yanvar). Sanoat namunasiga patent berish uchun talabnomani tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari (Buyruq № 3490). <https://lex.uz/docs/-6755600>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024, 11 yanvar). Sanoat namunasiga patent berish uchun talabnomani tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari (Buyruq № 3490). <https://lex.uz/docs/-6755600>

Ushbu komponentlar esa rus olimlaridan biri I.K. Yeleusizova ta'biri bilan aytganda, mahsulot sifatini belgilab berib, uning bozorda raqobatbardosh bo'lishini ta'minlab beruvchi detallar hisoblanadi⁵. WIPO tushuntirishlariga ko'ra **dizayn** bu funktsional va tashqi xususiyatlarning kombinatsiyasidir. Sanoat dizayni stol yoki telefon uchun badiiy yechim bo'ladimi, bizning e'tiborimizni mahsulotga jalb qiladigan yoki mahsulotlardan biriga ustunlik berishga undaydigan asosiy omillardan biridir⁶. Shunga ko'ra bozorda raqobatbardosh bo'lishni va xaridorgir mahsulot ishlab chiqarishni maqsad qilgan har qanday kompaniya, avvalo, tovarining bejirim tashqi ko'rinishiga e'tibor beradi va ko'plab sanoat dizaynlarini ishlab chiqishga kuch beradi va ularni patentlash orqali bozorda o'z original tovarining qiymatini oshiradi. Bunda patent himoya vositasi sifatida xizmat qilib, davlat ro'yxatidan o'tkazilib patentlangan sanoat namunasi patentning egasi, agar bunday harakatlar tijorat maqsadlarida amalga oshirilgan bo'lsa, uchinchi shaxslarga himoyalangan namunaning nusxasi bo'lgan dizaynni o'z ichiga olgan buyumlarni ishlab chiqarish, sotish yoki olib kirishni taqiqlash huquqiga ega bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda sanoat namunasi qonuniy himoyaga ega bo'lush uchun ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Ba'zi

⁵ Мониторинг патентно-правовой охраны объектов промышленной собственности. (n.d.). CyberLeninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/monitoring-patentno-pravovoy-ohrany-obektov-promyshlennoy-sobstvennosti>

⁶ World Intellectual Property Organization. (n.d.). Дизайны (промышленные образцы). <https://www.wipo.int/ru/web/designs>



mamlakatlarda sanoat namunalari patent qonuni ostida "dizayn patentlari" sifatida himoyalangan. Ba'zi mamlakatlarda sanoat dizayni to'g'risidagi qonunlar "ro'yxatga olinmagan sanoat namunalari" deb ataladigan vaqt va ko'lamli himoyani ro'yxatdan o'tkazmasdan berishi bilan alohida ajralib turadi. Muayyan milliy qonunchilikka va dizayn turiga qarab, sanoat namunalari mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun ostida san'at asari sifatida ham himoya qilinishi mumkin.

Sanoat namunalari patentlashtirish bilan bog'liq **xalqaro hujjatlarni** tahlil qilsak, asosiy hujjatlardan biri bu 1883 yilda qabul qilingan **Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi** sanoat mulkiga umumiy va keng ma'noda, jumladan patentlar, tovar belgilari, sanoat namunalari, foydali modellar, xizmat ko'rsatish belgilari, savdo nomlari, geografik ko'rsatkichlar va adolatsiz raqobatni bostirishga nisbatan qo'llaniladi⁷. Ushbu xalqaro shartnoma ijodkorlarga o'z intellektual asarlarini boshqa mamlakatlarda himoya qilinishini ta'minlashga yordam berish uchun qilingan birinchi yirik qadam bo'lgan. Ushbu Konvensiya boshqa obyektlar qatori sanoat namunalari uchun ham birlamchi qoidalarni belgilaydi.

Albatta aytib o'tishimiz joizki, WIPO tizimida **4 ta klassifikatsiya** mavjud bo'lib ulardan biri aynan sanoat namunalari patentlashtirish uchun zarur tasniflash tizimini o'z ichiga oladi.

Milliy yoki xalqaro IP himoyasiga da'vogarlar o'zlarining yaratilishi yangi yoki boshqa birovga tegishli ekanligini aniqlashlari kerak. Buni aniqlash uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qidirish kerak. Xalqaro tasniflar ixtirolar, tovar belgilari va sanoat namunalari haqidagi ma'lumotlarni osongina qidirish uchun indekslangan, boshqariladigan tuzilmalarga joylashtirish orqali bunday qidiruvlarni osonlashtiradi. **Lokarno tasnifi (LOC)** sanoat namunalari ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlarni tasniflash uchun ishlatiladigan xalqaro tizimdir. U 1968 yilda Lokarno kelishuvi bilan tashkil etilgan va Lokarno Ittifoqi ekspertlar qo'mitasi tomonidan doimiy ravishda qayta ko'rib chiqiladi⁸. Ahdlashuvchi Davlatlarning vakolatli idoralari sanoat namunalari saqlash yoki ro'yxatdan o'tkazishni aks ettiruvchi rasmiy hujjatlarda namunalarni o'z ichiga olgan tovarlar tegishli bo'lgan Tasniflash sinflari va kichik sinflari raqamlarini ko'rsatishi shart. Bu sanoat namunalari depozitga qo'yish yoki ro'yxatga olish bo'yicha idoralar chiqaradigan har qanday nashrda ham amalga oshirilishi kerak.

Lokarno tasnifiga to'xtalsak, ushbu xalqaro tasnif quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sinflar va kichik sinflar ro'yxati;
- sanoat namunalari tashkil etuvchi tovarlarning alifbo tartibida ro'yxati, ular tegishli sinflar va kichik sinflar ko'rsatilgan;
- tushuntirish yozuvlari.

⁷ World Intellectual Property Organization. (n.d.). WIPO Lex: Законы об индустриальном дизайне — Узбекистан. <https://www.wipo.int/wipolex/en/text/288514>

⁸ World Intellectual Property Organization. (n.d.). *Hague System for the International Registration of Industrial Designs*. <https://www.wipo.int/en/web/hague-system>



Sinflar va kichik sinflarning asl ro'yxati Lokarno shartnomasi qabul qilinganda unga ilova qilinadi. Lokarno kelishuvi bo'yicha har bir shartnoma tuzuvchi davlat vakillari bo'lgan Ekspertlar qo'mitasi tashkil etildi. Shartnoma Qo'mitaga sinflar va kichik sinflarning dastlabki ro'yxatiga "o'zgartirishlar" yoki "qo'shimchalar" kiritish, alifbo tartibida ro'yxat va tushuntirish yozuvlarini (diplomatik konferensiyada o'rnatilmagan) belgilash va uchta qismning har biriga (sinflar va kichik sinflar ro'yxati, alifbo to'g'risidagi tovarlarning tushuntirish ro'yxati) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini beradi. Lokarno tasnifi Lokarno kelishuvi 2-moddasiga ko'ra "faqat ma'muriy xarakterga ega" va shartnoma tuzuvchi mamlakatlarni "ushbu mamlakatlarda dizaynga taqdim etilgan himoyaning tabiati va ko'lami bo'yicha" bog'lamaydi⁹. Lokarno kelishuvi har bir Ahdlashuvchi davlatning sanoat mulki idorasidan "nasllarni saqlash yoki ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha rasmiy hujjatlarga, agar ular rasman e'lon qilingan bo'lsa, ko'rib chiqilayotgan nashrlarga konstruksiyalarni o'z ichiga olgan tovarlar tegishli bo'lgan xalqaro tasniflash sinflari va kichik sinflari raqamlarini kiritishni" talab qiladi (2(3)-modda). Ekspertlar qo'mitasining tavsiyalari ko'rsatilgan hujjatlar va nashrlarda sinflar va kichik sinflarni ko'rsatish tartibi bilan bog'liq. Ahdlashuvchi davlatlarning vakolatli idoralardan tashqari, Afrika Intellektual Mulk Tashkiloti (OAPI), Afrika

Mintaqaviy Intellektual Mulk Tashkiloti (ARIPO), Intellektual Mulk bo'yicha Benilüks Ofisi (BOIP), Evropa Ittifoqi Intellektual Mulk Ofisi (EUIPO) va BIMT Xalqaro Byurosi ham o'z reestri va nashrlarida Lokarno tasnifidan foydalanadilar. Lokarno tasnifi 32 ta sinfdan iboratdir.

Lokarno tasnifining tahrirlari va nashrlariga kelsak, Lokarno tasnifi ekspertlar qo'mitasi tomonidan bir necha bor qayta ko'rib chiqilgan. Joriy nashr oldingi nashrlarda qilingan barcha tahrirlarni o'z ichiga oladi va ularni almashtiradi. U vaziyatga qarab tushuntirish yozuvlari bilan sinflar va kichik sinflarni o'z ichiga oladi. Ingliz tilida 5000 dan ortiq yozuvlarni o'z ichiga olgan tovarlarning alifbo tartibida ro'yxati har bir tovar qaysi sinfga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, alifbo tartibida, shuningdek sinflar va kichik sinflar tartibida, har bir kichik sinf ostida alifbo tartibida taqdim etiladi. Lokarno tasnifining ingliz va fransuz tillaridagi haqiqiy versiyalari WIPO Xalqaro byurosi tomonidan onlayn nashr etiladi. Shuningdek, sanoat namunalarini xalqaro bazalar orqali qidirish uchun mo'ljallangan milliondan ortiq sanoat namunalarini o'zida jamlagan WIPO bazasi Global Design Database¹⁰ mavjud bo'lib, quyidagilarga bepul kirish imkonini beradi:

- ✓ Gaaga tizimidagi xalqaro dizaynlar (sanoat namunlari)
- ✓ Ishtirokchi milliy va mintaqaviy idoralarning dizaynlari

⁹ World Intellectual Property Organization. (n.d.). *WIPO Lex: Industrial Design — Applicable Legal Texts*. <https://www.wipo.int/wipolex/en/text/286253>

¹⁰ World Intellectual Property Organization. (n.d.). *Global Design Database*. <https://designdb.wipo.int/designdb/en/>



Izlovchi shaxs ushbu to'plamlarni kalit so'zlar, nomlar, tasniflash, sanalar, mamlakat va ustuvorlik va/yoki ularning kombinatsiyasidan foydalanib qidiruvni amalga oshirishi mumkin.

Shu o'rinda Xalqaro Sanoat namunalari, ya'ni dizayn himoyasi bo'yicha WIPOning Gaaga kelishuvi haqida so'z yuritsak, ushbu tizim orqali dunyoning WIPOga a'zo davlatlariga osonlik bilan talabnoma topshirish mumkin bo'lib, Sanoat namunalari xalqaro ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha **Gaaga tizimi** sanoat namunasi egasiga bir tilda, bir valyutada bir to'lovlar to'plami bilan bitta ariza berish orqali bir nechta mamlakatlarda himoya olish vositasini taklif qiladi¹¹. Bu xuddi tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun mo'ljallangan Madrid tizimi kabi bir sanoat namunasi bitta talabnoma orqali dunyoning WIPOga a'zo bo'lgan bir nechta davlatida huquqiy muhofazaga olishga erishish imkoniyatini taqdim etadi. Bundan tashqari, **Global Dizayn ma'lumotlar bazasi** Gaaga tizimida ro'yxatdan o'tgan barcha xalqaro sanoat namunalari, shuningdek, ishtirok etuvchi milliy to'plamlarda yagona, intuitiv interfeys orqali bir vaqtning o'zida qidirish imkonini beradi. **Gaaga Express ma'lumotlar bazasi** sanoat dizaynini qidirishda birinchi qadamdir. Ma'lumotlar bazasi Gaaga tizimida ro'yxatdan o'tgan joriy va o'tmishdagi sanoat namunalari to'g'risida har hafta yangilanadigan ma'lumotlarni taqdim etadi. Va albatta ushbu bazalardan ma'lumotlarni qidirish yuqorida aytib

o'tilganidek, Lokarno tasnifi asosida amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda sanoat namunasi patent berishga to'xtalsak, bu jarayon biz yuqorida keltirib o'tgan xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlariga tayangan holda olib boriladi. Sanoat namunasi patent berish avvalida deyarli barcha patent obyektlari va guvohnoma obyektlarida bo'lgani kabi ikki bosqichli Davlat ekspertizasi jarayoni o'tkaziladi. Bu jarayon ma'lum bir muddatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Sanoat namunasi patentga layoqatliligi shartlari mavjud. Bular yangilik va original (o'ziga xos)lik bilan xarakterlanadi. Shu nuqtayi nazardan, Agar sanoat namunasi muhim belgilari majmui sanoat namunasi ustuvorlik berish sanasiga qadar jahonda ommaga oshkor bo'lgan ma'lumotlardan ayon bo'lmasa, u **yangi** deb e'tirof etiladi.

Sanoat namunasi yangiligini aniqlash chog'ida birmuncha oldin ustuvorlikka ega bo'lgan holda topshirilgan va chaqirib olinmagan patent berish haqidagi talabnomalar ham hisobga olinadi.

Sanoat namunasi, agar uning muhim belgilari majmui buyum xususiyatlarining ijodiy jihatlari bilan bog'liq bo'lsa, original deb e'tirof etiladi. Sanoat namunasi taalluqli axborotning muallif, talabnoma beruvchi yoki ulardan bevosita yoxud bilvosita shu axborotni olgan har qanday shaxs tomonidan ommaviy tarzda oshkor etilishi, agar sanoat namunasi patent berish haqidagi talabnoma axborot oshkor etilgan sanadan e'tiboran ko'pi bilan *olti*

¹¹ World Intellectual Property Organization. (n.d.). *Hague System for the International*

Registration of Industrial Designs.
<https://www.wipo.int/en/web/hague-system>



oy ichida Vazirlikka topshirilgan bo'lsa, sanoat namunasining patentga layoqatligini tan olishga ta'sir ko'rsatadigan holat sifatida e'tirof etilmaydi. Bunda ushbu holni isbotlab berish vazifasi muallif, talabnoma beruvchi zimmasida bo'ladi. Qoidalarga ko'ra sanoat namunalari ikki turga tasniflanadi: hajmli va yassi. Ushbu ajratish sanoat namunasi ekspertizasini o'tkazish jarayonida birlamchi ahamiyat kasb etuvchi omildir. **Hajmli sanoat namunalari** o'zida uch o'lchamli kompozitsiya, hajmli-fazoviy tuzilmani namoyon qiladi (masalan, qishloq xo'jalik mashinasi, motor, telefon apparati va boshqalarning tashqi ko'rinishini belgilaydigan badiiy-konstruktorlik yechimlar). **Yassi sanoat namunasi** esa o'zi bilan ikki o'lchamli tuzilmali kompozitsiyani ifodalaydi, elementlarning o'zaro chiziqli-grafik nisbati bilan ta'riflanadi va deyarli hajmga ega bo'lmaydi (masalan, gilam, ro'mol, mato va boshqalarning tashqi ko'rinishini belgilaydigan badiiy-konstruktorlik yechimlar).

Shu o'rinda sanoat namunalarida boshqa obyektlardan farqli, tovar belgisiga sal o'xshash lekin, mohiyat bo'yicha katta farq qiluvchi jihati mavjuddir. Bu uning talabnomasida keltiriladigan namunaga qo'yilgan **birlik talabidir**. Ya'ni, talabnoma bitta sanoat namunasiga taalluqli bo'lishi kerak va ushbu sanoat namunasining **variantlarini** ichiga olishi mumkin. Sanoat namunasining variantlari deganda buyumning bir xildagi alohida xususiyatlarini belgilaydigan muhim alomatlar majmui bo'yicha farqlanadigan aynan bitta buyumning (komplekt,

to'plam) badiiy-konstruktorlik yechimi tushuniladi.

Bitta sanoat namunasi deganda yagona buyumning yoki umumiy vazifaga ega bo'lgan buyumlar majmuasining (to'plam) (masalan, mebel, servis) badiiy-konstruktorlik yechimi tushuniladi. Yagona buyum deganda butun bir buyum (masalan, avtomobil), shuningdek butun bir buyumning biron-bir qismi bo'lgan buyum (masalan, bamfer, fara) tushuniladi.

Qonunning 8-moddasi yettinchi qismiga muvofiq, quyidagilar sanoat namunalari deb e'tirof etilmaydi:

- matbaa mahsulotlari;
- arxitektura obyektlari (kichik arxitektura shakllaridan tashqari), sanoat, gidrotexnika inshootlari va boshqa statsionar inshootlar;
- suyuq, gazsimon, sochiluvchan yoki shunga o'xshash moddalardan iborat o'zgaruvchan shakldagi obyektlar;
- buyumning faqat texnik vazifasi bilan bog'liq bo'lgan yechimlar;
- jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid yechimlar.

Shuningdek, Talabnomada:

- a) odob-axloq qoidalariga zid iboralar, chizmalar, rasmlar, tasvirlar;
- b) axloqsiz va jargon so'zlar yoki shunday ma'noga ega bo'lgan iboralar;
- v) sanoat namunasiga taalluqli bo'lmagan yoxud talabnoma materiallarini ushbu Qoidalarning talablariga muvofiq deb e'tirof etish uchun zarur bo'lmagan ma'lumotlar bo'lmasligi lozim.

Albatta, har bir obyektning ro'yxatdan o'tkazish uchun minimal talablar, xalqaro va milliy miqyosda belgilab qo'yiladi va



o'zaro uzviy hamohanglikda bo'ladi. Shundan kelib chiqib, Qonunning 17-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, sanoat namunasi haqidagi talabnoma quyidagilarni o'z ichiga olishi lozimligi belgilangan:

a) sanoat namunasi muallifi (hammualliflari) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi ariza;

b) buyumning tashqi ko'rinishi haqida to'la-to'kis, bor tafsiloti bilan tasavvur qilish imkonini beruvchi buyum aks ettirilgan tasvirlar turkumi, maket yoki rasm;

v) agar sanoat namunasi mohiyatini ochib berish uchun zarur bo'lsa, buyum umumiy ko'rinishining chizmasi, ergonomik sxemasi, konfeksion xaritasi;

g) sanoat namunasi undagi muhim alomatlar majmuini aks ettirgan tavsifi.

Demak, sanoat namunasi ikki bosqichli rasmiy va mohiyat bo'yicha ilmiy-texnik ekspertizadan iborat Davlat ekspertizasini o'tkazishda yuqoridagi birlamchi talablar nazarda tutiladi.

Ushbu obyekt mualliflik huquqining to'la himoyasiga olinishi mumkin bo'lgan o'ziga xos, belgilangan talablar asosida taqdim etilishi lozim bo'lgan tavsifni taqdim etishni muallifdan talab qilishi bilan ahamiyatlidir. Sanoat namunasi tavsifi buyumning tasvirlarda aks ettirilgan tashqi ko'rinishini so'zlar bilan ochib berishi lozim. Va ushbu tavsif sanoat namunasi nomini ko'rsatishdan boshlanib, talabnoma berilgan sanoat namunasi mansub

bo'lgan SNXKning amaldagi tahriri rubrikasi aniqlangan holda bu rubrikaning indeksi keltiriladi va tavsif quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

a) sanoat namunasi vazifasi va qo'llanish sohasi;

b) sanoat namunasi analoglari;

v) sanoat namunasi ifodalangan tasvirlar va taqdim etilgan boshqa materiallar ro'yxati (masalan, chizma, ergonomik sxema, konfeksion karta);

g) sanoat namunasi mohiyati;

d) sanoat namunasi muhim alomatlar majmui.

Ushbu tavsifda keltirilishi lozim bo'lgan qismlar alohida ahamiyatga egadir. Ularning har biri sanoat namunasi originalligini ifodalab berish uchun ekspertga qimmatli ma'lumotlarni taqdim etishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda sanoat namunasi **variantlar va jamlanmalar tushunchalariga** to'xtalsak, aytish joizki, boshqa obyektlardan farqli ravishda sanoat namunasi talabnoma topshirishda birlik talabiga rioya qilib, ya'ni muhim belgilarning umumiy taalluqliligini saqlagan holda bir dan ortiq variantni keltirish mumkindir. **Sanoat namunasi variantlari** deganda buyumning bir xildagi alohida xususiyatlarini belgilaydigan muhim alomatlar majmui bo'yicha farqlanadigan aynan bitta buyumning (komplekt, to'plam) badiiy-konstruktorlik yechimi tushuniladi. **Bitta sanoat namunasi** deganda yagona buyumning yoki umumiy vazifaga ega bo'lgan buyumlar majmuasi (to'plam) (masalan, mebel, servis) badiiy-konstruktorlik yechimi tushuniladi. **Yagona buyum** deganda butun bir buyum (masalan,



avtomobil), shuningdek butun bir buyumning biron-bir qismi bo'lgan buyum (masalan, bamfer, fara) tushuniladi.

Qoidalarining 33-bandiga qarasa, agar talabnoma sanoat namunasining variantlariga berilayotgan bo'lsa, u holda uning nomi birlikda keltiriladi, qavslarda esa variantlarning soni ko'rsatiladi (masalan, "dur (2 variantda)" deb ifodalangan. Bu qoida texnik normalarni ko'zda tutsada, variantning asosiy mohiyatini ochib beruvchi misollarni o'z ichiga oladi.

Agar talabnoma o'zi bilan buyumlarning jamlanmasini (to'plamini) ifoda qiladigan obyektning badiiy-konstruktorlik yechimiga berilayotgan bo'lsa, sanoat namunasining nomida "to'plam", "jamlanma" so'zlari bo'lishi kerak (masalan, "manzarali g'ishtlar to'plami", "yotqizish uchun plitka-modullar to'plami"). Ushbu normaga ko'ra aytaylik manzarali g'isht ikki xil yoki ko'proq shaklli bo'lishi mumkin, lekin u bir umumiy badiiy-konstruktorlik yechimi osida birlashtirilgan bo'lsa, bir sanoat namunasining jamlanma ko'rinishi sifatida e'tirof etilishi bizningcha lozimdir.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, tavsif o'z ichiga muhim alomatlar majmuini olar ekan, ushbu muhim alomatlar ekspertiza jarayonida eng muhim rol o'ynovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Qonunning 20-moddasiga muvofiq, Davlat muassasasi patent berish haqidagi talabnoma bo'yicha rasmiy ekspertiza va sanoat namunasi haqidagi talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasidan iborat bo'lgan davlat ekspertizasini o'tkazadi. Qonunning 21-moddasiga muvofiq,

rasmiy ekspertiza patent berish haqidagi talabnoma **topshirilgan sanadan boshlab ikki oy o'tgandan** keyin o'tkaziladi. Talabnoma beruvchining yozma iltimosnomasiga ko'ra rasmiy ekspertiza ushbu muddat o'tmasdan o'tkazilishi mumkin. Bunda, talabnoma beruvchi iltimosnoma berilgan paytdan e'tiboran talabnoma materiallariga qo'shimcha patent bojini to'lamasdan, o'z tashabbusiga ko'ra tuzatishlar, aniqliklar va qo'shimchalar kiritish huquqidan mahrum bo'ladi. Ushbu jihati bilan tovar belgi rasmiy ekspertizasidan farq qiladi. Unda talabnoma kelib tushgan sanadan boshlab 1 oylik muddat ichida rasmiy ekspertiza amalga oshirilishi kerak.

Talabnoma materiallarining rasmiy ekspertizasini o'tkazish davomida quyidagilar tekshiriladi:

a) talabnoma tarkibida bo'lishi yoki unga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlarning mavjudligi;

b) sanoat namunasining mohiyatini tahlil qilmay turib, taqdim etilgan hujjatlarga nisbatan ushbu Qoidalarda qo'yilgan talablarga rioya qilinganligi;

v) Qonunning 14-moddasi to'rtinchi qismida ko'zda tutilgan hollarda talabnoma topshirish tartibiga rioya qilinganligi, shu jumladan patent vakili yoki ishonchli shaxsning vakolatlarini tasdiqlaydigan ishonchnomaning mavjudligi;

g) talabnoma berilgan taklifning sanoat namunasi sifatida huquqiy muhofaza beriladigan obyektlarga mansubligi;

d) talabnomada uning Vazirlikka kelib tushgan sanasidan avvalroq ustuvorlik so'ralishining asosligi;

e) sanoat namunasini SNXKning amaldagi tahriri bo'yicha tasniflash



talabnoma beruvchi tomonidan to'g'ri amalga oshirilganligi.

Rasmiy ekspertiza amalga oshirib bo'lingandan so'ng agarda talabnoma topshiruvchi tomonidan Vazirlik patent boji to'langan taqdirda talabnomaning **mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasi** o'tkazadi.

Talabnomaning mohiyati bo'yicha ilmiy-texnika ekspertizasida quyidagilar amalga oshiriladi:

a) sanoat namunasining ustuvorligi belgilanadi, agar u Qonunning 18-moddasi ikkinchi — to'rtinchi qismlariga muvofiq so'ralayotgan bo'lsa;

b) talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etilgan sanoat namunasining muhim alomatlari majmui Qoidalarining 52 — 61-bandlari talablarga muvofiq kiritilganligi tekshiriladi;

v) qo'shimcha materiallar, agar talabnoma beruvchi tomonidan bunday materiallar taqdim etilgan bo'lsa, Qoidalarining 184 — 188-bandlariga muvofiq tekshiriladi;

g) talabnoma materiallarida yoki talabnomani ko'rib chiqishda Davlat muassasasiga taqdim etilgan qo'shimcha materiallar bilan buyumning tasvirida keltirilgan talabnoma beruvchi tomonidan taklif qilingan muhim alomatlar majmuida ta'riflangan sanoat namunasining Qonunda belgilangan ***patentga layoqatlilik shartlari (yangilik va originallik)ga muvofiq*** tekshiriladi.

Sanoat namunasining yangiligini belgilashda avvalroq ustuvorlikka ega bo'lgan talabnomalar quyidagilarga asosan hisobga olinadi:

talabnoma O'zbekiston Respublikasida topshirilgan bo'lsa;

talabnoma boshqa talabnoma beruvchi tomonidan topshirilgan bo'lsa;

talabnoma chaqirib olinmagan, shuningdek chaqirib olingan deb hisoblanmagan bo'lsa.

Talabnoma ariza, tasvirlar va muhim alomatlar majmui bilan birgalikdagi sanoat namunasining tavsifi Vazirlikka kelib tushgan sanadan e'tiboran ushbu talabnoma tarkibida bo'lgan ***tasvirlar*** va sanoat namunasining ***tavsifiga nisbatan*** e'tiborga olinadi. Agar bu sana ko'rilayotgan talabnomaning ustuvorlik sanasidan kechroq bo'lsa, avvalroq ustuvorlikka ega bo'lgan talabnoma mazmunining ustuvorlikni belgilash uchun asos bo'lgan materiallari (birinchi talabnoma, avvalroq topshirilgan talabnoma, ushbu talabnomaga qo'shimcha materiallar) mazmuni bilan mos tushgan qismi axborot manbalari qatoriga kiritiladi. Agar ushbu Qoidalarining 165 — 168-bandlarida ko'rsatilgan axborot manbalarida talabnoma beruvchi tomonidan taklif etilgan sanoat namunasining muhim alomatlar majmuida ta'rifi va tasviri keltirilgan alomatlarga aynan o'xshash badiiy-konstruktorlik yechim to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlangan bo'lsa, sanoat namunasi yangilik shartiga muvofiq emas deb e'tirof etiladi¹².

Davlat muassasasi tomonidan ko'rib chiqilayotgan sanoat namunasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot manbai avvalroq ustuvorlikka ega bo'lgan talabnoma

¹²O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024, 11 yanvar). *Sanoat namunasiga patent berish uchun talabnomani tuzish, topshirish va*

ko'rib chiqish qoidalari (Buyruq № 3490). <https://lex.uz/docs/-6755600>



bo'lsa, bu holda ushbu talabnoma chaqirib olinmaganligi va chaqirib olingan deb hisoblanmaganligiga ishonch hosil qilish lozim. Agar talabnoma chaqirib olinmagan bo'lsa, shunday talabnoma mavjudligi haqida (uning talabnoma beruvchisini ko'rsatmagan va mazmunini ochmagan holda) talabnoma beruvchiga (avvalroq ustuvorlikka ega bo'lgan talabnoma bo'yicha aniq qarorga kelingunga qadar) uning talabnomasini ko'rish to'xtatib turilishi haqida Davlat muassasasi tomonidan ma'lum qilinadi. Bunda, talabnoma beruvchi talabnomani ko'rish to'xtatib turilishiga norozilik bildirsa, Davlat muassasasi tomonidan talabnoma berilgan sanoat namunasining yangilik shartiga muvofiq emasligi belgilanadi. Sanoat namunasining yangilik emasligi aniqlanganda, Davlat muassasasi tomonidan talabnoma beruvchiga ekspertizaning tegishli dalillari bayon qilingan va ushbu dalillarga nisbatan o'z fikrini taqdim etish taklif qilingan so'rovnomaga jo'natiladi. Yangilik shartiga muvofiq emasligi aniqlangan sanoat namunasining originallilikka tekshiruvini o'tkazilmaydi.

Qonunning 8-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq, sanoat namunasi, agar uning muhim alomatlari majmui buyum xususiyatlarining ijodiy jihatlari bilan bog'liq bo'lsa, **original deb e'tirof etiladi.** Sanoat namunasining muhim alomatlariga buyum tashqi ko'rinishining alohida xususiyatlarini belgilovchi alomatlar, shakli, konfiguratsiyasi, ornamenti va ranglar uyg'unligi kiradi. Davlat muassasasi tomonidan originallilikni tekshirish talabnoma berilgan muhim alomatlar majmuida ta'riflangan sanoat

namunasiga nisbatan o'tkaziladi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) Qoidalarining 35-bandiga muvofiq eng yaqin analogni aniqlash;

b) tasvirlarda taqdim etilgan va talabnoma beruvchi tomonidan muhim alomatlar ro'yxatida ta'riflangan sanoat namunasini eng yaqin analogidan (muhim farqlovchi alomatlardan) farqlaydigan muhim alomatlarni aniqlash;

v) ko'rib chiqilayotgan sanoat namunasining muhim farqlovchi alomatlari bilan mos keluvchi alomatlarga ega bo'lgan yechimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ustuvorlik sanasigacha hamma foydalana olishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar orasidan aniqlash (axborot manbaida mavjud hamma foydalana olishi mumkin deb hisoblangan ma'lumotlarning sanasini aniqlashda ushbu Qoidalarining 166-bandi talablaridan foydalaniladi);

g) sanoat namunasini uning muhim farqlovchi alomatlaridan kelib chiqqan xususiyatlarini hamda ko'rib chiqilayotgan yechimlarning farqlovchi alomatlari bilan mos keluvchi alomatlardan aniqlangan yechimlarning alohida xususiyatlarini taqqoslash.

Sanoat namunasi, agar uning muhim farqlovchi alomatlaridan **aqalli bittasi yangi bo'lsa**, originallilik shartiga muvofiq deb hisoblanadi. Sanoat namunasi, shuningdek uning *barcha muhim farqlovchi alomatlari yangi bo'lmay, biroq ushbu alomatlarning birikuvini ko'rib chiqilayotgan sanoat namunasiga yangi badiiy-konstruktorlik yechim bersa, bu holda ham originallilik shartiga muvofiq deb hisoblanadi.* Patent berish jarayonida uning qachondan muhofaza qilinishini belgilash himoyani



ta'minlash uchun asosiy ko'rsatkichdir va bu paten talabnomalarning yanglik shartni belgilashda ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat namunasi bo'yicha ustuvorlik belgilanishi mumkin bo'lgan quyidagi uchta holat mavjud:

- 1) konvensiya ustuvorligi;
- 2) Talabnoma beruvchi tomonidan sanoat namunasining ustuvorligini Vazirlikka uning o'zi tomonidan ilgariroq topshirilgan talabnoma bo'yicha ustuvorlik;
- 3) Talabnoma beruvchi tomonidan sanoat namunasining ustuvorligini xuddi o'sha talabnoma beruvchining ilgariroq topshirilgan talabnomasiga berilgan qo'shimcha materiallar bo'yicha ustuvorlik¹³. Ushbu **ustuvorlik turlari** ham sanoat namunasining boshqa intellectual mulk obyektlaridan, xususan, asosan ikki xil ustuvorlik (konvensiya va korgazma ustuvorligi hamda dastlabki talabnoma ustuvorligi) mavjud bo'lgan tovar belgilaridan farq qilib turuvchi **asosiy jihatlaridan** biridir. Shu o'rinda Parij Konvensiyasi talablariga muvofiq, ixtiro va foydali model uchun 12 oy va sanoat namunalari hamda tovar belgilarining konvensiya ustuvorligi 6 oy etib belgilangan¹⁴ini ham aytib o'tish joizdir.

Shu o'rinda **sanoat namunalari bo'yicha xalqaro statistikalarga** e'tibor beradigan bo'lsak, dunyoda sanoat namunalari yaratish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Misol uchun 2014-yilda WIPO Gaaga tizimiga topshirilgan dizaynlar soni 1 189 100 tani tashkil

etgan bo'lsa, bu raqam 2023-yilda 1 524 000 tani tashkil etgan va yana o'sishda davom etadi. Ammo aytish joizki, dizayn boshqa barcha sanoat namunalari mos yillardagi taqribiy 6 foizini tashkil etmoqda. Shunga qaramay, sanoat namunasi dunyoda ilmiy ijodkorlik va kreativlikni himoya qilish vositasi sifatida o'sishda davom etmoqda. Milliy statistika shuni ko'rsatadiki, 2014-yilda milliy tizim orqali 366 ta dizayn uchun talabnoma berilgan, 2015-yil esa 406 tagacha yetgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam yilma-yil pasayishdan keyin 221 taga tushib qolganini ko'rish mumkin. BUndan xulosa qilsak, O'zbekistonda kreativlik pasayib borayotganini, dunyodagi mavjud holatga teskari vektorlar mavjudligini ko'rish mumkinligi sanoat namunasiga patent berish tizimidagi albatta salbiy holatdir. Bu jarayonni teskari ta'sirga solish va jamiyatda sanoat namunasini yaratish va uni hioyalagan holda biznes rivoji uchun foydalanishga bo'lgan harakatni, huquqiy savodxonlikni kuchaytirish hozirgi kunda juda zarurdir.

XULOSA

Hozirgi kunda oddiy xalq patent berish qoidalarini deyarli tushunmasligi ekspertiza jarayonidagi xat-hujjat almashinuvlaridan yaqqol ayondir. Hatto, tajribali yuristlarning ham sohadagi mavjud qoidalarni anglay olmaslik holatlari ko'p uchraydi. Bu esa sanoat namunasini ham, uni huquqiy muhofaza va himoya qilish jarayonlarini

¹³ O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida. (2002, 29-avgust, 397-II-son). <https://lex.uz/docs/-76671>

¹⁴ World Intellectual Property Organization. (n.d.). *WIPO Lex: Industrial Design Laws — Uzbekistan*.

<https://www.wipo.int/wipolex/en/text/288514>



ham xalq ko'z o'ngida juda qiyin bir jarayonga aylantirib qo'yishi ijodkorlik, kreativlikni yuzaga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Buning oldini olish uchun albatta sohani tushunadigan yuristlar kerak, va ular tomonidan aholiga juda sodda va aniq tushuntirishlar berib borish tizimi yo'lga qo'yilishi bugungi jadal rivojlanib borayotgan boziriqtisodiyotida juda muhimdir. Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2025 yildagi PQ-358-sonli "Intellectual faoliyat natijalarini rag'batlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriyetishni kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan aholiga intellectual mulk faoliyatini ishonchli himoyalashga yordam beradigan bir qator ustuvor maqsad va vazifalar belgilab berildi. Jumladan, 2027-yilgacha patent vakillari institutini kuchaytirish orqali ularning sonini 400 tagacha, Butunjahon intellectual mulk

tashkiloti hamkorligida xorijda malakasini oshirgan intellektual mulk sohasidagi mutaxassislar sonini 200 nafargacha oshirish maqsad qilingan. Shuningdek, sohada raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarini keng qo'llagan holda tartib-taomillarni soddalashtirish, fuqarolar va tadbirkorlarga davlat xizmatlarini huquqiy hamda uslubiy yordam ko'rsatish bilan birga amalga oshirish vazifalari belgilangan¹⁵. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz milliy intellektual mulk muhofazasi tizimi va WIPO bazasida hujjat almashish masalalarini takomillashtirish, milliy talabnomalarni xalqaro ro'yxatlardan o'tkazish va bu jarayonga oid BIMTing turli loyiha va dasturlarida faol qatnashish soha mutaxassislar va tadbirkorlar uchun birdek zarurdir. Bir so'z bilan aytganda, sanoat namunasi bu iste'molchilarga tadbirkor kreativligini ko'rsatuvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (01.05.2023) <https://lex.uz/docs/-6445145>;
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (01.03.1997) <https://lex.uz/docs/-111189>;
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida. (2002, 29-avgust, 397-II-son). <https://lex.uz/docs/-76671>;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2024, 11 yanvar). Sanoat namunasiga patent berish uchun talabnomani tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari (Buyruq № 3490). <https://lex.uz/docs/-6755600>

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2025 yildagi PQ-358-sonli "Intellectual faoliyat natijalarini rag'batlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriyetishni kengaytirishga oid

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, (28.11.2025). 07/25/358/1105-son. // <https://lex.uz/docs/-7864188>



5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2025 yildagi PQ-358-sonli "Intellectual faoliyat natijalarini rag'batlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, (28.11.2025). 07/25/358/1105-son. // <https://lex.uz/docs/-7864188>;
6. I.B.Yakubova. Xalqaro intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. – T.: TDYuU nashriyoti, 2021. – 202-bet.
7. Юлдашев, А. 2023. Оliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarning intellektual mulk hamda innovatsiyalarni yaratishga doir faoliyatini takomillashtirish masalalari. in Library. 1, 1 (avg. 2023), 58–65.
8. Михайликов, В. Л., & Рябушенко, А. А. Понятие и признаки промышленного образца. (n.d.). CyberLeninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-priznaki-promyshlennogo-obraztsa/viewer>
9. Мониторинг патентно-правовой охраны объектов промышленной собственности. (n.d.). CyberLeninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/monitoring-patentno-pravovoy-ohrany-obektov-promyshlennoy-sobstvennosti>
10. World Intellectual Property Organization. (n.d.). Дизайны (промышленные образцы). <https://www.wipo.int/ru/web/designs>
11. World Intellectual Property Organization. (n.d.). WIPO Lex: Законы об индустриальном дизайне — Узбекистан. <https://www.wipo.int/wipolex/en/text/288514>
12. World Intellectual Property Organization. (n.d.). Hague System for the International Registration of Industrial Designs. <https://www.wipo.int/en/web/hague-system>
13. World Intellectual Property Organization. (n.d.). WIPO Lex: Industrial Design — Applicable Legal Texts. <https://www.wipo.int/wipolex/en/text/286253>
14. World Intellectual Property Organization. (n.d.). Global Design Database. <https://designdb.wipo.int/designdb/en/>